

ISHLAB CHIQRISHNI RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH- IQTISODIYOT RIVOJINING ASOSIY OMILI

Óralova Nodirabegim Ótkir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

MI-62 guruh talabasi

Ilmiy rahbari: Xursandov Komiljon Maxmatkulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

PhD dotsent

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada mamlakatimizda ishlab chiqarish sohalari, salohiyati, sohada olib borilayotgan islohotlar shuningdek, statistik ma'lumotlardan foydalangan holda mavzu tóliq yoritib berildi.

KALIT SÓZLAR: ishlab chiqarish, iqtisodiy ósish, investitsiya, siyosiy tuzilma, iqtisodiy resurs, soliq, mulkchilik, subsidiya.

РАЗВИТИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРОИЗВОДСТВА – ГЛАВНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ

Ташкентский государственный экономический университет

Студент группы МИ-62.

Уралова Нодирабегим Уткировна

АННОТАЦИЯ. В данной дипломной работе тема была подробно раскрыта с использованием статистических данных о производственных секторах, потенциале и реформах в этой области.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: производство, экономический рост, инвестиции, политическая структура, экономический ресурс, налог, собственность, субсидия.

PRODUCTION DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT - THE MAIN FACTOR OF ECONOMIC DEVELOPMENT

Tashkent State University of Economics

The student of the MI-62 group

Uralova Nodirabegim Utkirovna

Abstract. In this thesis, the subject was covered in detail, using statistical data on the production sectors, potential, and reforms in the field.

Key words: production, economic growth, investment, political structure, economic resource, tax, ownership, subsidy.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimiz hukumati tomonidan ishlab chiqarish sohasini innovatsion rivojlantirishni rag‘batlantirishga alohida urg‘u berilmoqda. Iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash jarayonlarida mamlakatimiz mahsulotlarini eksport qiluvchi ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning mahsuloti raqobatbardoshligini oshirish va yangi bozorlarni o‘zlashtirish chora-tadbirlari davom ettirilmoqda. Barchamizga ma‘lumki, iqtisodiyotning bosh muammosi- cheklangan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanib, insonlarning cheklanmagan va o‘sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish hisoblanar ekan, ishlab chiqarish sohasida resurslar omili muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil O‘zbekiston siyosiy yo‘lini bozor iqtisodiyoti talablariga moslashtirayotgan bir paytda, uning asosi bo‘lgan xususiy mulkchilik, tadbirkorlikni qo‘llab quvvatlash maqsadida bir qator qonun-qarorlar, ularga berilayotgan sharoitlar, ajratilayotgan subsidiya va soliq sohasidagi imkoniyatlarni aytib o‘tish joizdir. Yaqqol misol sifatida 2011-yil mamlakatimizda “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” va 2018-yil “ Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e‘lon qilingani ham bu sohani rivojlanishiga keng yo‘l ochib berdi.

Bunday islohotlar albatta, ishlab chiqarish sohasining rivojlanishiga zamin yaratadi. Davlatda iqtisodiy o‘rinish sur‘atini ishlab chiqarish sanoatining qay darajada ekanligidan bilish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi: tadqiqot jarayonida statistik analitik kuzatuv, induktiv deduktiv, ekspress-baholash va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi. Órganilgan adabiyotlar natijasida mavzu tóliq yoritib berildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ishlab chiqarish- bu jamiyat taraqqiyoti va mavjudligi uchun zarur bólgan moddiy boyliklar yaratish jarayoni. Kishilik jamiyati taraqqiyotining hamma bosqichlarida ishlab chiqarish zarur. Uning mazmunini 3 element- mehnat, mehnat ashyolari va mehnat vositalari bólishini taqozo etadi[1]


Boshqa guruh olimlari esa ishlab chiqarishga yuqorigidagidan boshqacharoq ta‘rif berishgan. Ishlab chiqarish- kishilik jamiyatining mavjud bo‘lishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan hayotiy ne‘matlarni yaratish jarayoni deb ta‘riflashgan.

Ishlab chiqarishda kapital tushunchasini ham turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Xususan, g‘arb iqtisodchilari ham, masalan, J.Klark, L. Valras, I.Fisherlar kapitalga daromad keltiruvchi, foyda keltiruvchi, foiz keltiruvchi qiymat deb qaraydilar.

Qator g‘arb iqtisodchilarining jumladan, D.Xayman, P. Xeyne, E.Dolon, J.Robinson, R. Dornbush va boshqalarning fikri keltirib va ularni umumlashtirib, professor V.D.Kamayev o‘zining rahbarligida yozilgan darsligida “ haqiqatdan ham – kapital o‘z o‘zidan ko‘payuvchi qiymat”[2] deb yozadi.

Ishlab chiqarish omillari insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlari uchun umumiy bo'lsa-da, bu omillarga turli adabiyotlarda turlicha ta'rifni ko'ramiz. Jumladan, "Siyosiy iqtisod" darsliklarida ishlab chiqarishning ikki omili: moddiy va shaxsiy omillari mavjudligi tan olinadi.

Tahlil va natijalar .Har bir ishlab chiqarish obyektining mahsulot ishlab chiqarishi uchun ma'lum bir talab- qoidalari bo'lishini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Shuningdek ishlab chiqarish omillari ham muhim rol o'yanaydi. Uni quyidagi chizma orqali ko'rishimiz mumkin.




1-rasm. Ishlab chiqarish omillarining turkumlanishi.[3]

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishning bir nechta tamoyillari mavjud. Bular quyidagilar:

- ixtisoslashtirish;
- mutanosiblik;
- paralellik;
- bir tekis, ketma-ket yo'nalish;
- uzluksizlik;
- bir me'yorlik;
- avtomatlashganlik[4];

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan industrial davlatlari soni oshib bormoqda. Xususan, Singapur, Janubiy Koreya va Xitoy kabi davlatlar o'zining ishlab chiqarish mahsulotlarining hajmi va integratsiyalashuvi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi mahsulot hajmi, mamlakatning YIM da ulushining oshishi va eng ahamiyatli tadbirkorlar sinfining kengayishiga olib keladi.



2-rasm. 2023-yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy ahvoli.[5]

Korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 1-noyabr holatiga, birlik)		Kichik tadbirkorlik subyektlari soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) 1-noyabr holatiga, birlik)	
2022	2023	2022	2023
619 648	682 126	548 415	608 930

3-rasm. Ishlab chiqarish subyektlarining o'sishi (2022-2023 yillar)

Statistika ma'lumotlariga qaraydigan bolsak, sanoat ishlab chiqarish hajmi 2023-yil bazis davrga nisbatan 0,4 foizga, qurilish hajmining osish surati joriy davrda 0,8 foizga, shuningdek, korxonalar va kichik biznes subyektlarining soni ham bazis davriga qaraganda osganini korishimiz mumkin. Mamlakatimizda ham ishlab chiqarish tarmoqlarini isloh qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, respublikada sohaning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Hammamizga ma'lumki, yurtimizda paxta yetishtirish hajmi O'zbekiston YIM ning ko'p qismini egallaydi. "Research and market" veb-saytining xabar berishicha, paxta yetishtirish hajmi bo'yicha dunyoning eng yirik paxta eksportyorlari ichida O'zbekiston 6-o'rinni egallaydi[6]. Yuqori navli paxta-ipak mahsulotlarini yetishtirish

va qayta ishlash juda katta mehnat, vaqt va shu bilan bir qatorda yuqori darajali texnologiyalar sarfini talab qiladi. Ishlab chiqarishni jadallashuvi o'z navbatida investitsiyalar, xalqaro hamkorlikka jalb qilish, siyosiy tuzilma va strategiyalarni amalga oshirish, ilg'or texnologiyalar sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga olib keladi. Ishlab chiqarishni innovatsion texnologiyalar yordamida rivojlanishi qisqa muddatda mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirishga, resurslarni kam sarflanishiga, ishchi va tadbirkor daromadining ko'payishiga sabab bo'ladi. Ishlab chiqarishni samarali tashkil qilish davlat yoki tadbirkor oldiga bir qancha qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin. Resurslar, texnologiyalar, malakali mutaxassis kuchi- bularning hammasi ishlab chiqarishning muhim omillari bo'lib xizmat qiladi. Biroq, bu sohada qo'llaniladigan innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish va davom ettirishga xizmat qiladi, xizmatlarni sifatli amalga oshirish va raqobatdoshlikni oshirishga, ya'ni haqiqiy raqobat muhitini yaratishga yordam beradi.

Xulosa va takliflar. Ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun bir nechta tamoyillarni belgilab olish zarur. Birinchidan, texnologiyalarni qabul qilish va ularni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini tezlashtirish mumkin va bu orqali yangi imkoniyatlar yaratilishiga sabab bo'ladi. Ikkinchidan, iste'molchilarni talabini o'rganish va shu bilan yangi tovarlar yaratish yoki tovar assortimentini ko'paytirish. Uchinchidan, narxlarni nazorat qilish. Bu albatta, ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Shu bilan bir qatorda qo'shimcha sifatida quyidagi faktorlarni keltirib o'tsam bo'ladi. Bu jarayon ishlab chiqarish sektorlari davlatda eng avvalo ko'p miqdorda ish o'rni yaratadi, aholi bandligi ta'minlanadi va mavjud ish o'rinlarini yanada kengayishiga yordam beradi. Qo'shimcha sifatida xorijiy mamlakatlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o'rganish, ularni yurtimizda tadbiq qilish va turli xil startap loyihalarini tashkil qilishga undaydi. Eng muhimi, mamlakatning bu sohada innovatsion potensialini oshiradi, ko'p hajmli, sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantiradi.

Foydalanilgan manbalar:¹

¹ 1.Sh. Shodmonov. "Iqtisodiyot nazariyasi" darslik.- T.: "IQTISODIYOT" Nashriyoti DUK, 2021. 756bet

2.Экономическая теория: учеб. Для студ. В.Д Камаева.- ВЛАДОС, 2004, стр, 217

3.4. I.Xotamov, G. Madraximova. "Real sector korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish": O'quv qo'llanma.- T.: "IQTISODIYOT" 2019- 200bet

5. <https://lex.uz/docs/-5836411>

6. <https://stat.uz/>